

MUSTAQIL TA'LIM – TALABALARNI INNOVATSION PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHNI MUHIM OMILI SIFATIDA

Samiyev Uchkun Abdullajonovich,

*Andijon davlat pedagogika instituti,
Biologiya va geografiya kafedrası dotsenti.*

Uktamov Urayimjon Shavkatjon o'g'li

*Biologiya va geografiya kafedrası
v/b dotsenti.g.f.f.d. (PhD)*

Sarikulov Mirkomil Olimovich,

Biologiya va geografiya kafedrası o'qituvchisi.

Payzullayev Marufjon Abduxoliqovich,

Biologiya va geografiya kafedrası o'qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijodiy fikrlashni rivojlantirish mustaqil topshiriqlar talabalarning ijodiy yechimlarni topish ko'nikmalarini rivojlantirish, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish va talabalar mustaqil ta'lim davomida turli muammoli vaziyatlarni hal qilish ko'nikmasini shakllantirish, bu esa ularni kelajakda innovatsion pedagogik faoliyatda muvaffaqiyatli bo'lish, mas'uliyat va tashabbuskorlik mustaqil ta'limda talabalar o'z vaqtlarini to'g'ri taqsimlash va tashabbus ko'rsatish imkoniyatlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: innovatsiya, kontsepsiya, modul, raqamli vositalar, onlayn platformalar, ta'lim samaradorligi, masofaviy ta'lim, elektron platforma, registrator ofis.

INDEPENDENT EDUCATION - AS AN IMPORTANT FACTOR OF PREPARING STUDENTS FOR INNOVATIVE PEDAGOGICAL ACTIVITY

Samiyev Uchkun Abdullajonovich,

*Andijan State Pedagogical Institute,
Associate Professor of the Department of
Biology and Geography.*

Urayimjon Shavkatjon ogly Uktamov

*Doctor of Philosophy in Geography (PhD),
acting associate professor*

Sarikulov Mirkomil Olimovich,

*Teacher of the Department of Biology
and Geography.*

Payzullayev Marufjon Abduxoliqovich,

*Teacher of the Department of Biology
and Geography.*

Abstract: *In this article, the development of creative thinking, independent tasks, the development of students' skills to find creative solutions, decision-making in problem situations, and the formation of students' ability to solve various problem situations during independent education, which will make them successful in innovative pedagogical activities in the future, responsibility and initiative, the ability of students to properly allocate their time and show initiative in independent education will be highlighted.*

Key words: *innovation, concept, module, digital tools, online platforms, educational efficiency, distance education, electronic platform, registrar's office.*

KIRISH

Mustaqil ta'lim zamonaviy ta'lim tizimida talabalarning o'z ustida ishlash, nazariy bilimlarini amaliy ko'nikmalar bilan boyitish hamda ijodiy va innovatsion fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon talabalarning tashabbuskorligini oshirib, ularni mustaqil qaror qabul qilishga, muammolarni tahlil qilish va yechim topishga o'rgatadi. Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni keng qo'llash imkoniyatlari ortib borayotgan sharoitda mustaqil ta'lim talabalarni pedagogik faoliyatda yangicha yondashuvlarni qo'llashga tayyorlashning muhim vositasiga aylanmoqda.

Bugungi kunda innovatsion texnologiyalar ta'lim jarayoniga keng ko'lamda tatbiq etilayotgani sababli, o'qituvchilar va talabalar yangi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishda yangicha yondashuvlarni qidirishga majbur bo'lmoqdalar. Bunda mustaqil ta'limning ahamiyati yanada oshib, u talabalarni pedagogik faoliyatda innovatsiyalarni joriy etishga tayyorlaydigan muhim vositaga aylanmoqda. Shu sababli, mustaqil ta'lim talabalarda tahliliy fikrlash, ijodkorlik, hamkorlikda ishlash va muammolarni hal qilish kabi XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishning asosiy manbai hisoblanadi.

“O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasi”da oliy ta’lim jarayonlariga raqamli texnologiyalar va zamonaviy o‘qitish usullarni joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, korrupsiyaga qarshi kurashish, muhandislik-texnik ta’lim yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalar ulushini oshirish, kredit-modul tizimini joriy etish, o‘quv rejalarda amaliy ko‘nikmalarni oshirishga qaratilgan mutaxassislik fanlari bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar ulushini oshirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019-yil 8-oktyabrdagi Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasi”ga[1] ko‘ra mamlakatdagi oliy ta’lim muassasalarining 85 foizi 2030-yilgacha bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tishi rejalashtirilgan. Shuningdek, ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari va yoshlarga ta’lim berishda innovatsion shakl va usullarni joriy etish alohida

ta'kidlangan. Ushbu qarorda ta'lim tizimini yangi bosqichga ko'tarish va o'sib kelayotgan avlodni ma'naviy-axloqiy hamda intellektual rivojlantirish zaruriyati belgilangan. Ushbu maqsadlarga erishish yo'lida mustaqil ta'limning roli katta bo'lib, u talabalarning yangi bilimlarni amaliyot bilan integratsiyalashiga ko'mak beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 824-son qarori [2] hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2020-yil 16-iyuldagi "Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 311-son buyrug'i hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 30-maydagi 02/3530/05-49-sonli xatidagi "Oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish va nazorat qilish bo'yicha namunaviy yo'riqnoma" ishlab chiqilgan bo'lib bu talabalarni mustaqil ta'limni tashkil etishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Talabaning mustaqil ta'lim yuklamasi o'quv rejasida muayyan fanni o'zlashtirish uchun belgilangan o'quv ishlarining ajralmas qismi hisoblanadi. Talabaning mustaqil ta'limi auditoriya va auditoriyadan tashqarida (o'quv yuklamasida ajratilgan auditoriya soatini inobatga olmagan holda) bevosita o'qituvchi rahbarligida mustaqil ish yoki talabaning fan (modul) bo'yicha mavzulami mustaqil o'qib-o'rganishi tarzida amalga oshiradigan o'quv ishlari majmuini anglatadi.

Mustaqil ta'lim-bu talabaning o'z bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish uchun o'quv topshiriqlarini o'z kuchi bilan bajarishi hamda yangi bilimlarni mustaqil ravishda o'zlashtirishini nazarda tutadi. Ushbu jarayon talabaning mustaqil fikrlashini, mas'uliyatlik va o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Mustaqil ta'limning asosiy maqsadi talabalarga o'z ta'lim jarayonini rejalashtirish, boshqarish va ijodiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat [3; 24-28-b.].

Innovatsion ta'lim jarayonlari talabaning faqatgina tayyor bilimlarni o'zlashtirishini emas, balki yangi bilimlarni izlab topish va ishlab chiqishni ham talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan, mustaqil ta'lim talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda quyidagi jihatlarida muhim rol o'ynaydi:

- **ijodiy fikrlashni rivojlantirish:** mustaqil topshiriqlar talabalarning ijodiy yechimlarni topish ko'nikmalarini rivojlantiradi;
- **muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish:** talabalar mustaqil ta'lim davomida turli muammoli vaziyatlarni hal qilishni o'rganadilar, bu esa ularni

kelajakda innovatsion pedagogik faoliyatda muvaffaqiyatli bo'lishiga yordam beradi;

– **mas'uliyat va tashabbuskorlik:** mustaqil ta'limda talabalar o'z vaqtlarini to'g'ri taqsimlash va tashabbus ko'rsatishni o'rganadilar, bu esa innovatsion faoliyatda kerak bo'ladigan muhim jihatlardir [4; 213-216-b.].

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda talabalarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llashga doir katta tajriba to'plangan bo'lib, bu tajriba asosini interfaol metodlar tashkil etmoqda. Talaba asosan, o'zi o'zlashtirgan bilimlarni namoyish etadi, o'qituvchi esa uning fikrlarini tinglaydi, zarur o'rinlarda o'qituvchi – talaba an'anaviy ta'limdagi suhbat ishtirokchilari savollar bilan murojaat qiladi. Talabalar guruhi (jamoasi) bu vaziyatda butunlay sust ishtirokchi, tinglovchi bo'lib qoladi. Bir qarashda talaba yoki o'qituvchi tomonidan uzatilayotgan axborotlarning qabul qilinishi talabalar guruhi (jamoasi) uchun bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatini yaratayotgandek taassurot uyg'otadi. Biroq, psixologik tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, shu tarzda qabul qilingan bilim (ma'lumot)lar juda tez unutiladi. Hususan, amerikalik psixolog olimlar R.Karnikau va F.Makelrouning o'rganishlariga ko'ra shaxsning tabiiy fiziologik-psixologik imkoniyatlari muayyan shakllarda o'zlashtirilgan bilimlarni turli darajada saqlab qolish imkonini beradi. Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir [5; 308-317-b.].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Mustaqil ta'lim – o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish, murakkablik darajasi turlicha bo'lgan topshiriqlar, amaliy vazifalami auditoriya hamda auditoriyadan tashqarida ijodiy va mustaqil bajarish asosida nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalari shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyatdir. Mustaqil ish – o'qituvchining topshirig'i va rahbarligida o'quv vazifasini hal etadigan ta'limning faol metodi. Mustaqil ish qo'yilgan maqsad bilan bog'liqlikda talabalarning aniq faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishdir. Talabaning mustaqil ishlari uning yuqori darajadagi faollik, ijodiylik, mustaqil tahlil, tashabbuskorlikka ham da barcha vazifalamio'z vaqtida va mukam mal tarzda bajarishga asoslangan faoliyatidir.

Mustaqil ish turi va shakli muayyan ta'lim yo'nalishi (mutaxassislik) hamda fan (modul) laring xususiyatidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Mustaqil o'qib-o'rganishuchun taklif etilgan mavzular ham da mustaqil ish topshiriqlari va ularni bajarish bo'yicha ko'rsatmalar talaba uchunishlab chiqilgan fan dastur (Sillabus)da o'z aksini topishi lozim. Mustaqil ish uchun taqdim etilgano'quv topshiriqlari variativ tavsifga ega bo'lishi tavsiya etiladi.

Didaktik jarayonlarni jadallashtirish, talabalarning mustaqil ta'lim olish samaradorligini oshirish maqsadida o'quv davriningi-sem estrida tyutorlar, ARM

xodimlari va fan mas'ullari tomonidan mazkur jarayonni amalga oshirish tartibi bo'yicha davriy ravishda (shu jumladan, kredit haftaligi doirasida) o'quv seminarlarini tashkil etilishi maqsadga muvofiq [6; 172-174-b.].

Mustaqil ish topshiriqlari va uni bajarish muddatlari elektron platformada qat'iy belgilanadi. Elektron platformada qabul qilingan va baholangan mustaqil ishlar qog'oz varianti talab qilinmaydi. Fan (modul) xususiyati va topshiriq shakli mazkur elektron variantni inkor qilsa, qog'oz variant shaklida olinadi. Uzrli sabablarsiz mustaqil ishni bajarish muddatini o'tkazib yuborgan talabaning o'quv faoliyati natijalari tekshirilmaydi va baholanmaydi uzrli sabablar esa, dekanat (registrator ofis) tomonidan o'rganib chiqilishi, dekan ruxsati bilan inobatga olinishi hamda topshiriq bajarilishi uchun yakuniy nazorat o'tkazilishiga qadar qayta topshirish muddati belgilanishi mumkin.

Mustaqil o'qib-o'rganish uchun taklif etiladigan mavzular va mustaqil ish topshiriqlari fan (modul)ga ajratilgan kreditlar soni hamda talabaning vaqt budjetini inobatga olgan holda belgilanishi lozim.

Talaba tomonidan elektron tizim (platforma)ga yuklangan mustaqil ish topshiriqlari aniq belgilangan muddatda professor-o'qituvchi tomonidan tekshirilishi va natijasi talabaga ma'lum qilinishi shart.

Talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishning maqsad va vazifalari:

1. Talabalarning mustaqil ta'limni tashkil etishdan asosiy maqsad fan (modul) bo'yicha o'zlashtirilgan bilimlari mustahkamlash, boyitish, amaliy ko'nikma va malakalarni takomillashtirish, axborot bilan ishlash, o'z-o'zini rivojlantirish, kognitiv, kreativ, ham korlikda ishlash kompetensiyalarini shakllantirishdan iboratdir.

2. Talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish quyidagi vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishga xizmat qilishi lozim:

– talabalarda o'z-o'zini rivojlantirish, mustaqil bilim olish va innovatsion faoliyatni shakllantirishga imkon beruvchi kompetensiyalarni egallash maqsadi bilan bog'liqlikda mustaqil o'quv faoliyatini amalga oshirish;

– bilim, ko'nikma va malakalarni mustaqil egallash, muammoni shakllantirish olish va uni hal etishning maqbul yo'larini izlab topishga qobiliyatli kreativ shaxsni tarbiyalash;

– talabalarda o'quv dasturini o'zlashtirishga doir motivatsiyani hosil qilish;

– ta'lim oluvchilarda bilim olishga doir mas'uliyatni oshirish;

– talabalarda umummadaniy va kasbiy kompetensiyalari rivojlantirishga imkon berish;

– ta’lim oluvchilarda mustaqil bilim olish, o’z-o’zini boshqarish va o’z-o’zini rivojlantirishga qobiliyatlikni shakllantirish uchun sharoit yaratish [7; 174-178-b.].

Mustaqil o’qib-o’rganish va mustaqil ish topshiriqlarini bajarishda talabalar quyidagi vazifa va majburiyatlarni amalga oshirishi lozim:

– fan (modul)lar bo’yicha mustaqil o’qib-o’rganish uchun tavsiya etilgan mavzularni to’liq o’zlashtirishi va mustaqil ish topshiriqlarini belgilangan muddatlarda sifatli tarzda taqdim etishi;

– mustaqil ish topshiriqlarini bajarishda plagiat (ko’chirmakashlik)ga yo’l qo’ymasligi;

– mustaqil ish topshiriqlarini bajarishga kreativ yondashishi, mustaqil, tanqidiy va innovatsion fikrlash, axborotlar bilan ishlash kompetentligiga ega bo’lishi, o’z-o’zini rivojlantirishga intilishi;

– kichik guruhlarda hamkorlikdagi mustaqil ish topshiriqlarini bajarishda jamoaning umumiy maqsadiga mos harakat qilishi, o’ziga yuklatilgan vazifalarni o’z vaqtida bajarishi, jamoada ishlay olish kompetensiyasini o’zlashtirishi.

Mustaqil ishga qo’yilgan baho (ballar) bo’yicha e’tirozlar bo’lgan taqdirda, talaba belgilangan muddat tugaganidan keyin 24 (yigirma to’rt) soat (1 sutka) davomida dekanat (registrator ofis)ga elektron platforma orqali ariza bilan murojaat qilishi mumkin. Talabalar mustaqil ta’limini baholash mezonlari tegishli kafedralar tomonidan fan (modul)lar xususiyatini inobatga olgan holda ishlab chiqiladi va fakultet ilmiy kengashida tasdiqlanadi [8; 2-9-b.].

Mustaqil ta’lim talabalarni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlashning muhim omili hisoblanadi. Talabalar mustaqil ravishda bilim olish va amaliyotda qo’llashni o’rganar ekan, ularning ijodiy va innovatsion faoliyati rivojlanadi. Shu bois, ta’lim muassasalari mustaqil ta’limni rag’batlantirish va qo’llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratishi lozim. Talabaning mustaqil ta’limi o’quv rejasining ajralmas qismi bo’lib, nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy ko’nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan. Bu jarayon auditoriya va auditoriyadan tashqarida amalga oshirilib, talabaning ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur ta’lim shakli talabaning o’z-o’zini boshqarish, axborot bilan ishlash, hamkorlikda faoliyat yuritish va o’z-o’zini rivojlantirish ko’nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Mustaqil ta’limni samarali tashkil qilish orqali talabalarning nazariy va amaliy bilimlarini integratsiyalash, ularni pedagogik faoliyatga tayyorlashda sezilarli natijalarga erishish mumkin. Natijada, kelajak avlodning kasbiy tayyorgarligi va ijodiy salohiyati ortadi. Mustaqil ta’limni samarali tashkil qilish nafaqat talabalarning bilimini chuqurlashtiradi, balki ularni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni (<https://lex.uz/ru/docs/-4545884>)
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 824-son qarori
3. Bozorova, A., & Sayfullayeva, G. (2023). Kredit–modul ta'lim tizimida talabalarning mustaqil ta'lim jarayonini tashkil etish / Byulleten studentov novogo Uzbekistana, 1(7), 24-28.
4. Karimova D.A (2023). Talabalarning mustaqil ishini tashkil etish kasbiy ahamiyatli kompetensiyalarni shakllantirish omili sifatida / Academic research in educational sciences, 4 (TMA Conference), 213-216.
5. Bekmurodovna T.K. (2023). Application of new pedagogical technologies in practical lessons. european journal of modern medicine and practice, 3(12), 308-317.
6. Islikov S., Saidov J., Xolmuminov D. (2023). Mustaqil ta'limni sharq mutafakkirlarining qarashlari asosida tashkil qilish / YEraziyskiy jurnal texnologiy i innovatsiy, 1(5), 172-174.
7. Qo'ziboyeva M.M. "Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishning pedagogik xususiyatlari" / Ekonomika i sotsium 5-1 (96) (2022): 174-178.
8. <https://jbnuu.uz/storage/o%E2%80%98quv%20uslibiy%20bo%27limi/Talaba%20mustaqil%20ishini%20tashkillashtirish%20uchun%20yo%27riqnoma.pdf>
9. Уктамов У.Ш. Факторы, влияющие на трансформацию ландшафтов Центральной Ферганской пустыни. // "Экономика и социум" №7 (98) 2022. www.iupr.ru. "Институт управления и социально-экономического развития", Россия, г. Саратов. ISSN 2225-1545.(11.00.00. Мустақил давлатлар ҳамдўстлиги мамлакатлари нашрлари № 11). 378-382 с.